



T.QURBONOVNING "TO‘YONA" ASARINI TALQIN ETISH MASALALARI

Karabayev Abdumajid Nagimovich
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
"Orkestr dirijyorligi" kafedrasи katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada To‘lqin Qurbonovning "To‘yona" asari tarihi, shakli va tuzilishi, uning o‘ziga xos jihatlari va orkestr ijrosida to‘g‘ri talqin qilish masalalari ko‘rildi.

Kalit so‘zlar: dirijor, orkestr, kompozitor, konsert, musiqa cholg‘ulari, tembr, uslub, dinamika.

Bugungi kun O‘zbekiston simfonik musiqasi serqirra hamda ko‘plab janr va yo‘nalishlarni o‘zida mujassamlashtirgan san’at sohasidir. Yurtimizning san’at va anjumanlar saroylari, teatrлar, O‘zbekiston davlat konservatoriyasining konsert zallarida bo‘lib o‘tayotgan ko‘plab konsertlar simfonik musiqaning xalqimiz yuragiga muqim o‘rnashganligini isbotlab turibdi.

O‘zbekiston kompozitorlarining simfonik orkestr uchun yozgan asarlari nafaqat Respublikamiz, balki jahon sahnalarida ham ijro etilmoqda. Shunday ekan, ushbu asarlarning dirijyorlar tomonidan to‘g‘ri talqin etilishi ijro sifatining yanada oshishiga xizmat qiladi.

Asarlarning g‘oyaviy va mazmunan teranligi, sozandalardan professional ijro mahoratlarini talab etishi, zamонави kompozitorlik texnikalarining ishlatilganligi o‘z-o‘zidan bugungi kun dirijyorlari oldiga ham murakkab vazifalarni yuklaydi. Mavzular frazirovkasi, dirijyorlik talqini kompozitor g‘oyasiga mutanosib bo‘lishi darkor. Buning uning dirijyor asar mazmunini chuqur anglashi, qator bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.



O‘zbekiston kompozitorlari yaratgan asarlar ichida T.Qurbanovning "To‘yona" asari nafaqat Respublikamiz, balki butun dunyo miqyosida taniqlidir. Ushbu asar musiqashunoslar tomonidan ham yuksak e’tirof etiladi, musiqashunos F.Sh.Muxtarova o‘z kitobida: "Monodik san’atning tabiatini his etgan holda, T.Qurbanov milliy musiqa shakllariga asoslanib, xalq va mualliflik ohanglari mujassam bo‘lgan o‘ziga xos asar – "To‘yona"ni yaratishga muvaffaq bo‘ldi"¹ deb yozadi.

So‘z o‘rnida ta’kidlab o‘tish kerakki, O‘zbekiston kompozitorlari orasida T.Qurbanov o‘zidan so‘ng katta ijodiy meros qoldirgan san’atkorlardan hisoblanadi. Uning yaratgan asarlarida milliy ohanglar yaqqol seziladi. Milliy ohanglarni polifonik tarzda orkestrda ko‘rsatish mahoratida unga teng keladigani yo‘q desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Musiqashunos Ye.Malmberg o‘zining kitobida "To‘yona" asarining yaratilishi haqida shunday yozadi: "... bir kuni qaysidir konsertdan qaytayotganimizda men unga "Simfonik orkestrda nog‘orani shunchalik eshitgim kelyaptiki!" degan edim. Oradan bir hafta ham o‘tmadiki, onam Lyubov Andreevna bilan o‘tirgan joyimizda u kelib, "Bizni sen bilan to‘yimiz bo‘lmagan edi, mana senga to‘y sovg‘asi" deya yangi qo‘lyozma – "To‘yona" partiturasini oldimizga qo‘ydi..."².

"To‘yona" asari 2 qism – Prelyudiya va Fugettadan iborat bo‘lib, unda kompozitor o‘zbek to‘y marosimi manzarasini aks ettiradi.

Prelyudiyada kelin uyida kuyov navkarni kutib olishga bo‘lgan tayyorgarchilik manzarasi ko‘rsatilsa, Fugettada kuyovning o‘z o‘rtoqlari bilan

¹ Muxtarova F.Sh. Fuga v tvorchestve kompozitorov Uzbekistana. Muzikalnoe iskusstvo. T. 1983. 227-bet.

² Malmberg Ye. Tulkun Kurbanov. Sbornik statey.T.2007. Respublika ilmiy-axborot markazi. 7-bet.



birgalikda kelin uyiga tomon borishi tasvirlanadi. Bu ikki manzara musiqada yorqin tasvirlangan: 1-qismda ayollar raqsi sokin sur'atdagi, 5/4 o'lchovli mavzu doira usuli ostida ijro etilsa, yigitlar obrazi jiddatli 4/4 o'lchovli 2-qism nog'ora usuli jo'rligida ifodalangan.

Karnay-surnaylar imitatasiyasi, xursandchilik hayqiriqlari bayram manzarasini yanada yorqinroq tasvirlashda katta rol o'ynaydi. Badiiy obrazlarga boy bo'lgan bu asarni orkestr bilan ijro etishda dirijyor o'zini bayram kayfiyatiga mos tuta bilishi kerak. Harakatlari yengil bo'lishi maqsadga muvofiq.

Asarning tahlilini ko'rib chiqsak. 1-qism 5/4 o'lchovida yozilgan bo'lib, doira usuli bilan boshlanadi. Aytib o'tish kerakki, ikkala qismda ham usul asosiy element hisoblanadi. 4 taktdan iborat kirish qismni:

doira ijro etgach, asosiy mavzu fleyta, goboy, klarnet va truba (*con sordini*)da beriladi. Ushbu ohanglarning uyg'unlashuvi surnay tembrini eslatadi va milliy koloritni aks ettiradi.

Ahamiyat berish kerak bo'lgan yana bir jihat – bu asarning poliritmiyada yozilganligidir. 8 taktlik asosiy mavzuning o'zida gruppakovka 3+2 va 2+3 tarzida almashib turadi. Orkestr usuldan chiqib ketmasligi uchun dirijyor 5/4 o'lchovini gruppakovka o'zgarishiga qarab dirijyorlik qilishi kerak. Bunda ahamiyat berish lozim bo'lgan eng asosiy jihat – har bir taktning boshlanishini aktivroq harakat bilan ko'rsatishdir. O'lchov almashuvida urg'u masalasiga alohida e'tibor berish lozim. Zero, 5/4 o'lchovini 3/4 va 2/4 sxemalariga maydalab dirijyorlik qilganda orkestr 1-hissani yo'qotib qo'yishi hech gap emas. Shuning uchun ham,



gruppirovka qay tarzda o‘zgargan bo‘lmisin, har bir taktning 1-hissasini alohida auftakt bilan ko‘rsatish darkor.

Mavzuning bиринчи bayonining 5-takti asosiy mavzuga qarama-qarshi bo‘lib valtornalar "aldamchi o‘lchov"³ sifatida 4/4 o‘lchovida karnay imitatsiyasini ijro etadi:



E’tiborli jihatni ushbu usul nafaqat asosiy o‘lchovga teskari, balki asosiy kuy mavzusiga ham tonal jihatdan nomutanosibdir. Bunday qarama-qarshilikning asarda kelishi bejizga emas. An’anaga ko‘ra milliy ijrochilikda karnaylar kuy tonalligiga qarab moslashmaydi, balki o‘zining jarangdor ovozini chiqarishga qulay bo‘lgan balandlikda ijro etiladi va bu deyarli har vaqt asosiy kuya umuman teskari tonallikda keladi. Ijrochilik ushbu o‘ziga xos qirralaridan xabardor bo‘lgan kompozitor o‘z asarida ham xalqona ijroni tasvirlaydi.

Karnay imitatsiyasining tonal jihatdan to‘g‘ri kelmasligi dirijyor zimmasiga katta vazifa yuklamasada, usulning teskari kelishi dirijyordan katta diqqat talab etadi, chunki asosiy o‘lchov bo‘yicha 3 taktdan iborat bu ritmik ko‘rinish, o‘zining o‘lchovida (4/4) 4 taktdan iborat bo‘ladi.

³ Mavzu yoki usulning asosiy ko‘rsatilgan o‘lchovga nisbatan teskari kelishi.



Mashg‘ulot vaqtida dirijyor dastavval sozandalar bilan asosiy mavzuni ishlab olib, ushbu ritmik notekislik kelgan joyda asosiy o‘lchov bo‘yicha $\frac{5}{4}$ ga emas, balki $\frac{4}{4}$ o‘lchovida dirijyorlik qilishi kerak. Chunki bu mavzu valtorna cholg‘usi uchun yuqori tessiturada yozilgan bo‘lib, agar dirijyor asosiy o‘lchov bo‘yicha dirijyorlik qiladigan bo‘lsa, shundoq ham kuchli bosim ostida ijro etayotgan valtorna ijrochilari o‘z sanoqlaridan ($\frac{4}{4}$) chiqib ketishlari muqarrar. Keyingi o‘rinlarda ham karnay imitatsiyasi berilganda dirijyor $\frac{4}{4}$ o‘lchovida dirijyorlik qilishi kerak.

Asar murakkab 3 qismli shaklda yozilgan bo‘lib, doira usuli rondo shakliga xos bo‘lgan refren vazifasini o‘taydi va asar davomida 4 marotaba ijro etiladi. 3 marotaba bum-bak zarblari bilan ijro etilgan usul, asar so‘ngida shiqildoqlarni silkitish bilan chalinadi.

Shakl tuzilishi jihatidan kompozitor milliy musiqa an’analardan foydalanadi: bunda 1-qism – daromad, 2-qism – avj va 3-qism – tushirimdir. Asar kulminatsiyasida muallif asosiy mavzu bilan unga qarama-qarshi tuzilmani kiritadi:

Bu mavzu kiritilgan vaqtida ham yuqorida aytib o‘tilgan sxema bo‘yicha, asosiy mavzu gruppirovkasiga qarab $3/4+2/4$ va $2/4+3/4$ sxemalarida dirijyorlik qilish kerak (1-hissalarni alohida auf bilan ko‘rsatishni unutmagan holda). Asarning



avj qismi bo‘lgan ushbu bo‘limda dirijyor qo‘llarini erkin harakat qildirishi va amplitudasini kengaytirib, lirk harakterni olib berishi lozim.

Avjdan so‘ng asar reprizaga qaytadi va oxirida doira usuli bilan yakunlanadi. Doira ijrosida pp dinamikasida yakun topayotgan bir vaqtida eng so‘nggi taktda forshlagli f zarbning kelishi asarning keyingi qismiga o‘tish uchun bog‘lovchi vazifani bajaradi.

Doirada usul past dinamikada kelgan vaqtarda dirijyor o‘z harakatlarini passivlashtirishi va sozandaga o‘zi ijro etishiga qo‘yib berishi kerak.

Prelyudiyada ahamiyatga sazovor jihat – bu kompozitorning karnay va surnay imitatsiyalarini simfonik orkestr ohanglarida topganligidadir. Bu imitatsiyani yanada yorqinroq chiqarib berish dirijorning vazifasiga kiradi. Xususan, karnay tembrini o‘xshatish uchun valtornalar septimaga sakrovchi harakatni yengil *glissando* bilan tovushni uzmay ijro etishlari kerakligini mashg‘ulot vaqtida dirijyor aytib o‘tishi kerak.

"To‘yona"ning 2-qismi Fugetta bo‘lib, yuqorida aytib o‘tilganidek u kuyovning o‘z o‘rtoqlari bilan kelin uyiga kelishini tasvirlaydi. 1-qismda asosiy cholg‘u doira bo‘lsa, bu yerda yigitlarning shiddati, bayram kayfiyatini yanada kuchaytirish uchun kompozitor nog‘ora cholg‘usidan foydalanadi. Nog‘ora 18 takt solo ijro etsada, asosiy usul 5 taktdan iborat:

The musical score consists of five measures of music for a woodwind instrument. The time signature is 2/4. The dynamic is marked as *pp* (pianissimo) throughout. Measure 1 starts with the instruction "muta in Nog'ora". Measures 2 and 3 show a rhythmic pattern of eighth-note pairs. Measure 4 shows a more complex sixteenth-note pattern. Measure 5 shows another eighth-note pair pattern. The dynamic marking changes to "poco a poco cresc." in measure 4, indicating a gradual increase in volume.

Undan keyin usul variatsiyalanadi. Ushbu usul nafaqat kirish qism sifatida, balki keyinchalik keladigan mavzularning ritmik ko‘rinishini ham ifodalab, leytritm sifatida keladi.



18 takt davomida dinamika ham asta-sekinlik bilan ko‘tarilib boradi. Bunda dirijyor eng birinchi aufni aniq ko‘rsatib, dinamikaning o‘sishini boshqarish kerak. Ko‘pgina tajribasiz sozandalar ushbu 18 takt davomida nog‘orada o‘zлari bilmagan holda asar sur’atini tezlashtirib yuboradilar. Bu holat yuz bermasligi uchun, dirijyor chizmani qat’iy ushlashi kerak. Eng so‘nggi 4 taktdagi *tremoloda* hushyorroq bo‘lishi kerak va orkestrni keyingi mavzuni ijro etuvchi sozandalarini tayyorlab, 4 takt mobaynida aniq 4/4 sxemasini orkestrga ko‘rsatishi kerak.

Prelyudiya kabi bu yerda asosiy mavzuni fleyta, goboy, klarnet va truba (*con sordini*) cholg‘ulari bilan bir qatorda alt ham ijro etadi:



Ushbu mavzuni 4/4 sxemasida dirijyorlik qilish noto‘g‘ri bo‘ladi, chunki mavzu uzun cho‘zimli notalardan tuzilgan, shuning uchun bu yerda *alla breve* tarzida 2/2 sxemasida dirijyorlik qilib, faqatgina har bir taktning birinchi hissalarini aniq ko‘rsatish kerak. 4 taktdan so‘ng esa litavruga 4/4 o‘lchovida aniq auf berib uni *crescendo* yordamida ff ga olib chiqish darkor.

Fuganing asosiy mavzusini dastlab torli cholg‘ular guruhi ijro etadi:

Ko‘rinish jihatdan mavzu *detache* shtrixida berilgan bo‘lsada, uni ijro etishda sozandalar *staccato* va *marcatoga* yaqin ohang chiqarishlari zarur. Chunki agar



detache shtrixida ijro etiladigan bo‘lsa, asar o‘z xarakterini yo‘qotib qo‘yadi va bo‘shashib qolgan ohang yuzaga keladi, bu esa asar g‘oyasiga mutlaqo zid. Shuning uchun, mashg‘ulot davomida dirijor ijro shtrixiga alohida e’tibor qaratmog‘i darkor. Orkestrning har bir sozandasasi mavzu xarakterini his qilishi va o‘zaro ansamblda ijro etishi uchun, o‘lchovni ortiqcha harakatlarsiz, bilaklarni keskin ishlatgan holda aniq 4/4 sxemasini ko‘rsatish kerak.

Keyinchalik ushbu mavzu polifonik uslubda rivojlantiriladi. Bunda kompozitor klassik fuga shaklidagi kabi kvinta yo‘lida emas, balki o‘zbek milliy musiqa an‘analaridagi kabi kvarta yo‘lida yozadi. Dastavval mavzu A-miksolidiy ladida berilsa, keyin D, va yana asosiy ladga qaytadi⁴.

Torli cholg‘ular guruhi mavzuni ijro etgach, 6-taktda yog‘ochli damli cholg‘ular mavzuni oktava yuqorida takrorlaydi. 6 taktdan so‘ng nog‘ora solosi, va 2 taktdan so‘ng karnaylar (valtornalar) namoyon bo‘ladi. Ushbu vaziyat dirijor zimmasiga katta vazifa yuklaydi. Nog‘ora o‘z solosini ijro etayotgan vaqtida dirijor 2 takt mobaynida valtornachilarini ijro uchun tayyorlashga ulgurishi kerak.

Ko‘pgina valtornachilar karnay partiyasini chalishda 1-qism – Prelyudiyadagi ijro sur’atiga o‘rganib qolib, bu yerda ham asar sur’atini o‘zлari sezmagani holda ortga torta boshlashadi. Buning oldini olish uchun dirijor mashg‘ulot vaqtida sozandalar bilan alohida ishlab, ularga 1-qismda cho‘zibroq ijro etilgan ushbu motiv, Fugettada staccato shtrixida qisqa-qisqa qilib, "pa-pa" puflashi orqali emas, balki "ta-ta" tarzida havo bosimini berishi kerakligini uqtirishi zarur. Shu bilan birga asar ijrosi vaqtida auf berishda ham qisqa, lekin aniq auf berib, valtornachilarni boshqarish kerak.

⁴ Malmberg Ye. Tulkun Kurbanov. Sbornik statey, "Svadebnaya" T.2007. Respublika ilmiy-axborot markazi. 16-bet.



2 takt valtorna solosidan keyin fleyta, goboy, klarnet, truba va alt cholg‘ulari asosiy mavzuga qarama-qarshi bo‘lgan lirk xarakterdagi mavzuni ijro eta boshlashadi⁵. Ushbu mavzuga 2/2 sxemasi bo‘yicha dirijyorlik qilish kerak, chunki har bir takt butun *legato* bilan bog‘langan va uni 4 chorakka maydalash noo‘rin. Ahamiyat qaratish zarur bo‘lgan yana bir jihat – karnaylar motivining yopilib qolmasligidir.

Mavzularning ketma-ket qo‘shilib, umumiyl kulminatsiyaga erishiladi. 3 takt davomida *tutti* nog‘ora usulini takrorlaydi va shundan so‘ng asosiy mavzu damli cholg‘ular va valtornalar o‘rtasida kanon tarzida ijro etiladi. Bu yerda ham sozandalar mavzuni *staccato* shtrixida ijro etishlariga ahamiyat berish kerak. Re bemol tonalligida keladigan mavzu bo‘lagi yakunlangach, 3-trombon va tuba ijrosida keladigan motivga ko‘zimiz tushadi:



Ushbu motiv ijrosida mi forshlagidan lya notasigacha *glissando* bilan tushish kerakli ohangni ifodalashga yordam beradi.

Asar borgan sari kulminatsiyaga tomon rivojlanib boradi. Ommaviy bayram effektini chiqarish uchun kompozitor deyarli barcha orkestr sozlariga *tremolo* (*frullato*) va uning ketiga *glissando* beradi. Bu tembr to‘y-tomosha hayqiriqlarini ifodalaydi. Ularning ijrosida dirijyor ahamiyat qaratishi zarur bulgan vaziyat – *glissandoning* butun orkestr ijrosida bir vaqtida uzilishidir. Undan tashqari ushbu

⁵ Umumiyl olib qaraganda, Fugettada barcha partiyalar asta-sekinlik bilan bir-biriga qo‘shilib boradi, buning sababi, kompozitorning to‘y manzarasini ochib berish uslubidir. Chunki to‘yda kuyov navkarga mahalladagi kichik bolalar ham qo‘shila boshlashadi, ularning qiy-chuvlari, kulgu-xursandchiliklari asta-sekin ortib boradi. Aynan shu holatni ifodalashni kompozitor o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi va bunga erishadi.



glissando ichida kichik *crescendo* qilinsa, kerakli ohangga erishish imkoniyati yanada oshadi.

Asar unison lya bemol notasida yakunlanadi. Dirijyor tomonidan eng so‘nggi 3 notaga aniq nuqta berib, keskin uzib olish o‘ta muhim.

"To‘yona" asarining o‘ziga xos jihat shundaki – unda erkak va ayol obrazlari yuksak did bilan tasvirlangan. Prelyudiya ayol (qiz) obrazini ochib beradi – bu o‘lchovning notekisligida (5/4) va doiraning yumshoq sadolanishida namoyon bo‘ladi. Unga qarama-qarshilik sifatida Fugettada qat’iy, aniq o‘lchov (4/4), nog‘oraning keskin sadolanishi, boyitilgan ifoda vositalari, tonalliklarning to‘satdan o‘zgarishi erkak (yigit) obrazini tasvirlaydi. Shunday bo‘lsada, ularning ikkisi ham bir asarda ideal tenglikdadir. Shu bilan birga bu yerda Sharq va G‘arbning uyg‘unligi ham ifodalangan⁶.

Asar milliy bayram manzarasini simfonik orkestr ijrosida juda go‘zal tarzda professional mahorat bilan tasvirlangan. Kompozitor ushbu asarga singdirgan g‘oyasini ochib berish birinchi navbatda dirijyorning vazifasidir. Ko‘rib chiqilgan muammolar va ularning yechimlari yosh dirijyorlarga nafaqat ushbu asarni, balki O‘zbekiston kompozitorlarining shu mavzuda yozilgan boshqa asarlarini ham to‘g‘ri talqin etishda qo‘l keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild. 460-bet
2. Yanov-Yanovskaya N.S. Uzbekskaya simfonicheskaya muzika.

Toshkent: G‘afur G‘ulom. 1979.

⁶ Malmberg Ye. Tulkun Kurbanov. Sbornik statey. "Svadebnaya" T.2007. Respublika ilmiy-axborot markazi. 16-bet.



3. Jabborov A.X. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodи. 2004.
4. Neymer V.B. Psixologiya dirijirovaniya. Musiqa. T., 2010.
5. Malmberg I.S. Tulkun Kurbanov (sbornik statey). Toshkent: Respublika axborot markazi. 2007.
6. Xolopova V.N. Formi muzikalnyx proizvedeniy: Uchebnoe posobie. 2-ye izd., ispr.– SPb.: «Lan», 2001.
7. Musiqa ijodiyoti masalalari. 2-to‘plam. T., 2002. Murodova D. Mustaqillik davri O‘zbekiston kompozitorlik ijodiyoti to‘g‘risida.
8. Muxtarova F.Sh. Fuga v tvorchestve kompozitorov Uzbekistana. Muzikalnoe iskusstvo. T. 1983.